TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 16 - mart 108-10-134-Q/24 Ohangaron tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 13-martdagi 166-10-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 122-sonli qarori, viloyat hokimining 2024-yil 13-martdagi 166-10-0-Q/24-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 13-martdagi 166-10-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq quyidagilar:

Xotin-qizlarning itisodiy faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yil muddatga yillik 14 foiz stavkada jami 100 million AQSh dollari ekvivalentida, shundan AT “Xalq banki”ga 35 million AQSh dollari, “Biznesni rivojlantirish banki” ATBga 35 million AQSh dollari va “Mikrokreditbank” ATB ga 30 million AQSh dollari miqdorida kredit resurslari ajratilganligi;

Xotin-qizlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirishga:

AT “Xalq banki” va “Mikrokreditbank” ATBga ajratilgan mablag‘lar

hisobidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida belgilangan tartib va mexanizmlar asosida;

“Biznesni rivojlantirish banki” ATBga ajratilgan mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 306-sonli va 2023-yil 15-noyabrdagi “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 366-sonli qarorlarida belgilangan tartib va mexanizmlar asosida kreditlar ajratilishi belgilanganligi;

Savdo-sanoat palatasi, AT “Xalq banki”, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda tashabbuskor xotin-qizlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashish, mahallalarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotish, kooperatsiya asosida loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashish, loyihalar amalga oshirilishini kuzatib borish va ayol tadbirkorlar bilan doimiy muloqot qilishni nazarda tutuvchi xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilishi;

Bosh vazir o‘rinbosari Z.Mahkamova Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda 2024-2025-yillarda tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishi, dastur shakllantirishda va unga kiritilgan loyihalarga mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan kredit ajratishda ustuvorlik “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirish taklif etilayotgan loyihalarga berilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i S.Dexkanova, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i I.Abbazov, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i G.Usmonova bilan birgalikda ikki hafta muddatda 2024-2025-yillarda tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash dasturi

yuzasidan takliflarni ishlab chiqsin hamda Oila va xotin-qizlar boshqarmasiga taqdim qilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Azimov mazkur qarorning mazmun-mohiyatini va undan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, shu jumladan internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatov, tuman hokimi o‘rinbosari S.Dexkanovalar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.M.Muxitdinov**